



UDK: 94 (575.172)

**Temirbek A. AMETOV,**

PhD, dotsent, Diplomat University, Toshkent, O'zbekiston  
E-mail: [ametov.81@mail.ru](mailto:ametov.81@mail.ru), ORCID: 0000-0001-9364-9674

Dotsent, t.f.n. B.Utemuratovning taqrizi asosida

## CONCEPTUAL FOUNDATIONS OF MODERNISING THE LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF KARAKALPAKSTAN

Abstract

This article analyses the theoretical and practical foundations for modernising the legislative framework of the Republic of Karakalpakstan. The research highlights issues of legal system renewal, improving the quality of law-making, and aligning norms with national strategies. It substantiates the necessity of systematising legislation and implementing digital technologies in governance, considering the region's unique ecological and economic conditions. The article concludes by putting forward scientific recommendations aimed at increasing the effectiveness of legal norms and ensuring sustainable development within the current legal landscape.

**Keywords:** Karakalpakstan, legislation, modernization, reform, legal conflict, law-making, democratization, analysis.

## КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ МОДЕРНИЗАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН

Аннотация

В данной статье анализируются теоретические и практические основы модернизации законодательной базы Республики Каракалпакстан. В исследовании освещены вопросы обновления правовой системы, повышения качества законотворчества и приведения норм в соответствие с государственными стратегиями. Обоснована необходимость систематизации законодательства и внедрения цифровых технологий в управление с учетом уникальных экологических и экономических условий региона. В завершение статьи выдвинуты научные рекомендации, направленные на повышение эффективности правовых норм и обеспечение устойчивого развития территории в современных условиях.

**Ключевые слова:** Каракалпакстан, законодательство, модернизация, реформа, правовая коллизия, законотворчество, демократизация, анализ.

## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QONUN HUJJATLARINI MODERNIZATSİYALASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchilik bazasini modernizatsiyalashning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotda huquqiy tizimni yangilash, qonun ijodkorligi sifatini oshirish va normalarni davlat strategiyalariga muvofiqlashtirish masalalari yoritilgan. Mintaqaning o'ziga xos ekologik va iqtisodiy holatini hisobga olgan holda qonun hujjatlarini tizimlashtirish hamda boshqaruvga raqamli texnologiyalarni joriy etish zaruriyati asoslab berilgan. Maqola yakunida huquqiy normalar samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan ilmiy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Qoraqalpog'iston, qonunchilik, modernizatsiya, islohot, huquqiy kolliziya, qonun ijodkorligi, demokratlashtirish, tahlil.

**Kirish.** Bugungi kunda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar barcha hududlar, xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va huquqiy hayotini tubdan yangilashni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Qonun ijodkorligi borasidagi faoliyat sifatini tubdan yaxshilash, qonunchilik bazasini tizimlashtirish va qonun osti hujjatlari sonini keskin qisqartirish, qonun ijodkorligida "aqilli tartibga solish" modelini yanada keng qo'llash borasidagi ishlar tizimli ravishda davom ettiriladi. Huquq ijodkorligi va huquqni qo'llash faoliyatini o'rganish asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqiladi"[1].

**Adabiyotlar tahlili.** Mintaqaviy qonunchilikni modernizatsiyalash va demokratik islohotlarning huquqiy asoslarini tadqiq etish bugungi kunda ham milliy, ham xalqaro huquqshunoslikda muhim o'rin tutadi. Ushbu muammoni o'rganishda adabiyotlarni bir nechta fundamental yo'nalishlarga ajratish mumkin.

Birinchidan, davlat boshqaruvi va qonun ijodkorligini modernizatsiyalashning nazariy asoslari bo'yicha O'zbekistonlik olimlardan A.Saidov, H.Azizov va Sh.Zulfiqorovlarning tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ularning ishlarida qonunchilikni tizimlashtirish, normativ-huquqiy hujjatlarning sifatini oshirish va huquqiy islohotlarning bosqichma-bosqichligi masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiya tamoyillarini hududiy qonunchilikka

implementatsiya qilish masalalari ushbu mualliflar diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Ikkinchidan, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos huquqiy maqomi va uning qonunchilik tizimi rivojlanishini qoraqalpog'istonlik huquqshunos olimlar, jumladan, B.Kochanov, L.Axundjanov, S.Nietullaev, G.Erniyazova, K.Umarova va J.Ermashev, O.Turdiyev va J.Xakimovlar batafsil tadqiq etishgan. Ularning ilmiy ishlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesning vakolatlari, mintaqaviy normativ hujjatlarni qabul qilish metodologiyasi va mahalliy davlat hokimiyati organlarining huquqiy faoliyati tahlil qilingan. Biroq, zamonaviy raqamli transformatsiya va "yashil" iqtisodiyot sharoitida ushbu qonun hujjatlarini yangilashning kontseptual jihatlari hali to'liq o'rganilmagan.

Uchinchidan, qiyosiy-huquqiy tahlil doirasida xalqaro tajribani o'rganishda xorijiy tadqiqotchilar (masalan, K.Karter, R.Deyvid) asarlariga murojaat qilindi. Ularning tadqiqotlarida unitar davlat tarkibidagi avtonom tuzilmalarning qonunchilik bazasini modernizatsiyalash, huquqiy unifikatsiya va diversifikatsiya muvozanatini saqlash masalalari yoritilgan.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud adabiyotlarda Qoraqalpog'istonda demokratik yangilanishlarning umumiy huquqiy asoslari yoritilgan bo'lsa-da, qonun hujjatlarini modernizatsiyalashning aynan kontseptual strategiyasi va dinamik o'zgarishlarga moslashish mexanizmlari bo'yicha ilmiy bo'shliqlar

mavjud. Aynan mana shu jihat mazkur tadqiqotning zarurligini va uning avvalgi bilimlarga qo'shadigan yangi hissasini belgilaydi.

Scholar Google va boshqa ilmiy bazalardan olingan eng so'nggi maqolalar (2022-2026-yillar) tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda asosiy e'tibor qonunchilikning "moslashuvchanligi" va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda raqamli vositalarning huquqiy maqomiga qaratilmoqda. Mazkur tadqiqot ushbu yangi yo'nalishlarni Qoraqalpog'iston huquqiy muhitiga moslashtirishni maqsad qiladi.

Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga va xalqimizga yo'llagan murojaatnomalarida qonun ustuvorligini ta'minlash hamda davlat boshqaruvi modernizatsiya qilish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Aynan, Qoraqalpog'istonda huquqiy bazani takomillashtirish, hududiy qonun hujjatlarini yangi tahrirdagi Konstitutsiya tamoyillariga muvofiqlashtirish va "Inson qadri uchun" tamoyilini hayotga tatbiq etish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosini dialektik bilish nazariyasi tashkil etib, qonunchilik tizimi doimiy rivojlanishda va jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan uzviy bog'liqlikda o'rganiladi. Tadqiqotda ob'ektivlik, ilmiylik va tizimlilik tamoyillariga qat'iy amal qilingan holda, huquqiy normalarning evolyutsiyasi va ularning istiqboldagi holati tahlil qilinadi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy metodlardan bo'lgan mantiqiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullari qo'llaniladi. Xususan, mantiqiy tahlil orqali Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlaridagi mavjud bo'shliqlar aniqlansa, sintez usuli yordamida tarqoq normalarni umumlashtirgan holda modernizatsiyaning yagona kontseptual modeli ishlab chiqiladi. Deduksiya usuli O'zbekiston Respublikasining umumdavlat qonunchilik tamoyillarini mintaqaviy qonun hujjatlariga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashga xizmat qiladi.

Xususiy ilmiy metodlar orasida qiyosiy-huquqiy tahlil usuli markaziy o'rinni egallaydi. Ushbu metod yordamida Qoraqalpog'iston Respublikasi qonunchiligi xorijiy davlatlarning unitar tuzilma tarkibidagi avtonom birliklari tajribasi bilan solishtiriladi. Shuningdek, tizimli-tarkibiy yondashuv orqali qonunchilik bazasi o'zaro bog'liq elementlar majmui sifatida ko'rib chiqilib, qonun va qonunoshti hujjatlari o'rtasidagi ierarxiik mutanosiblik o'rganiladi.

Tarixiy-huquqiy metod mintaqa qonunchiligining shakllanish bosqichlarini tahlil qilishga va o'tmishdagi ijobiy tajribalarni zamonaviy islohotlarga moslashtirishga yordam beradi. Statistik tahlil usuli esa qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarining dinamikasini va ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini raqamlar asosida baholash imkonini beradi. Shuningdek, huquqiy modellashtirish usuli orqali qonunchilikni modernizatsiyalashning ehtimoliy natijalari va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri prognoz qilinadi.

Tadqiqotning empirik bazasini O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyalari, qonunlari, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda sud-huquq amaliyoti materiallari tashkil etadi. Metodologik yondashuvlarning bunday majmui mavzuni har tomonlama, chuqur va xolis yoritishga, shuningdek, ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirishga zamin yaratadi.

**Tahlil va natijalar.** Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Qoraqalpog'iston Respublikasini har tomonlama rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va demokratik tamoyillarni mustahkamlash ustuvor vazifa etib belgilangan. Demokratiya - bu faqatgina siyosiy institutlar majmuasi emas, balki jamiyat hayotini tartibga soluvchi adolatli va hayotiy qonunlar tizimidir.

Modernizatsiya jarayonlari iqtisodiyot, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvida tub o'zgarishlarni talab qilar ekan, ushbu o'zgarishlarning huquqiy poydevori bo'lmish qonun hujjatlarini ishlab chiqish jarayoni ham davr talablariga mos kelishi shart. Biroq, bugungi kunda Qoraqalpog'istonda qonun ijodkorligi sohasida qator dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda, ularni tahlil qilish va yechim topish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarbdur.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengening qonun ijodkorligi evolyutsiyasi mintaqaning siyosiy-huquqiy maqomi hamda o'zbek davlatchiligi ierarxiyasidagi o'rni bilan determinatsiyalangan holda bir necha konseptual bosqichlarni bosib o'tgan. Zamonaviy parlamentarizmning shakllanishi 1990-yillar boshidagi suverenitet deklaratsiyalari bilan boshlanib, O'zbekiston (1992-yil) va Qoraqalpog'iston (1993-yil) Konstitutsiyalarida Jo'qorg'i Kengening oliy vakillik organi sifatidagi huquqiy statusi qat'iy mustahkamlandi. Dastlabki bosqichda norma ijodkorligi asosan davlat ramzlari va til siyosati kabi fundamental atributlarni huquqiy jihatdan legallashtirishga yo'naltirilgan bo'lsa, 1993-2010-yillar oralig'ida normativ-huquqiy bazani tizimlashtirish jarayoni jadallashdi. Bu davrda mahalliy boshqaruv, ijtimoiy muhofaza va madaniy merosni muhofaza qilishga oid qonunlar bilan bir qatorda, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga qaratilgan ekologik-huquqiy mexanizmlar ustuvorlik kasb etdi.

Qayd etish lozimki, 1993-1994-yillar mobaynida o'n ikkinchi chaqiriq Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengening XII va XVI sessiyalari doirasida 31 ta qonun loyihasi tahlil etilgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi Raisi raisligidagi yig'ilishda 160 ta masala ekspertizadan o'tkazildi. Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonlari optimallashtirildi. Ushbu faoliyatga qo'mita a'zolari bilan birga ilm-fan va ishlab chiqarishning diversifikatsiyalangan sohalar olimlari hamda mutaxassislardan tashkil topgan ishchi guruhlar jalb qilindi. Qonun loyihalari tayyorlanish bosqichida tegishli vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari hamda ijodiy uyushmalar ekspertlari ishtirokida aprobatsiyadan o'tkazildi. Umumxalq muhokamasini ta'minlash maqsadida loyihalar ommaviy axborot vositalarida e'lon qilindi. Shuningdek, loyihalar xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlarida muhokama etildi. Sessiya arafasida xalq deputatlarining axborot-tahliliy bazasini shakllantirish maqsadida ularga soha mutaxassislari tomonidan tayyorlangan materiallar taqdim etildi. Tuman va shaharlarni kompleks rivojlantirishning strategik yo'nalishlari belgilandi. Bozor iqtisodiyoti transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yuritishning ilmiy asoslangan yangi metodologiyalari tatbiq etildi. Davlat aktivlarini demonopolizatsiya qilish va xususiyashtirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Zamonaviy qonun ijodkorligi jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy determinatsiya tizimi, xususan, Tartibga solish ta'sirini baholash (Regulatory Impact Assessment (RIA)) instituti fundamental ahamiyat kasb etadi. Mazkur mexanizm loyihalashtirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlarining makroiqtisodiy, ijtimoiy va fiskal indikatorlarga ehtimoliy ta'sirini preventiv tahlil qilishga yo'naltirilgan. Shunga qaramay, O'zbekiston va qator xorijiy yurisdiksiyalari qonunchilik amaliyotida Tartibga solish ta'sirini baholash (RIA) instrumentariyasining to'liq implementatsiya qilinmaganligi tizimli kolliziyalarni yuzaga keltirmoqda.

Tartibga solish ta'sirini baholash (RIA) tizimining strategik prioriteti – qonunchilik tashabbuslarining amaliy sotsiungma ta'sirini prognoztika qilish, iqtisodiy samaradorlikni baholash hamda ortiqcha regulyativ yukni minimallashtirishdan iborat. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ekspertlarining xulosasiga ko'ra, Tartibga solish ta'sirini baholash (RIA) davlat strategiyasining sifatini optimallashtiruvchi hamda qarorlar qabul qilish jarayonida verifikatsiyalangan dalillarga asoslangan yondashuvni kafolatlovchi instrument hisoblanadi [2].

Amaliy muammolardan biri shundaki, yangi qonun loyihalari ko'pincha ularning aholi daromadlariga, tadbirkorlik xarajatlariga va davlat byudjetiga ta'siri chuqur tahlil qilinmasdan qabul qilinadi. Natijada, qonunlar deklarativ tush oladi va ularni amalga oshirish jarayonida kutilmagan iqtisodiy yuklamalar yuzaga keladi.

Masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasining 1994-yil 26-fevralda "Lotin yozuviga asoslangan yangi qoraqalpoq alifbosini joriy etish to'g'risida"gi 367/XII-son Qonuni lotin yozuviga asoslangan 31 harfdan iborat yangi qoraqalpoq alifbosi qabul qilindi. Ammo, 1994-yili 24-sentyabr [3], 1995-yil 10-iyun [4], 1995-yil 12-dekabr [5], 2009-yil 8-oktyabr [6], 2016-yil 10-iyunda

[7] qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. 1994-yil 26-fevralda qabul qilingan 367/XII-sonli Qonun mintaqaning ma'naviy-ma'rifiy mustaqilligi va modernizatsiyasini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi fundamental hujjat edi. Biroq, ushbu qonunning keyingi taqdiri qonun ijodkorligidagi "strategik rejalashtirishning yetishmasligi" muammosini yaqqol ochib beradi.

Umuman qonunchilik tizimida tobora dolzarb tus olayotgan muammolardan biri - "Legistik inflyatsiya", ya'ni normativ-huquqiy hujjatlar sonining ortib borishi hamda mavjud qonunlarga tez-tez o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishidir. Ushbu holat qonunchilikning barqarorligi va izchilligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, huquqiy tizim samaradorligini pasaytiradi.

Huquqni qo'llash amaliyotida ko'plab qonunchilik hujjatlari, xususan, kodifikatsiyalangan aktlarning qisqa vaqt davomida bir necha bor transformatsiyaga uchrashi kuzatilmoqda. Ayrim hollarda muayyan normativ-huquqiy hujjatga bir kalendar yili davomida beshdan o'ngacha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi institutsional huquqiy tartibga solish izchilligining dezorganizatsiyasiga hamda ularni amaliyotda realizatsiya qilish mexanizmlarining murakkablashuviga olib keladi. Akademik X.Odilqoriyev ta'kidlaganidek, "qonunlarning tez-tez o'zgarishi ularning barqarorligini zaiflashtirib, huquqiy ongga salbiy ta'sir ko'rsatadi"[8].

Ayniqsa, respublikadagi yer munosabatlarini tartibga soluvchi amaldagi qonunchilik bazasining retrospektiv tahlili Yer kodeksi hamda yer resurslarini taqsimlashga oid mahalliy normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida muayyan tizimli nomuvofiqliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos ekologik-landshaft xususiyatlari, jumladan, tuproq sho'rlanishining yuqori darajasi va dezertifikatsiya jarayonlarining jadalligi inobatga olinmaganda, dehqon xo'jaliklarini tashkil etish tartibining umumrespublika (Toshkent viloyati yoki Farg'ona vodiysi) standartlari asosida unifikatsiyalashtirilgan asosiy metodologik nuqson hisoblanadi. Bunday bir xillashtirilgan yondashuv Mo'ynoq yoki Qo'ng'iro't kabi ekstremal iqlim va gidrologik sharoitga ega hududlarda tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalarini ajratish hamda rasmiylashtirish mexanizmlarini iqtisodiy jihatdan samarasiz qilib, institutsional to'siqlarni yuzaga keltirgan. Natijada, ushbu hududlarda qonun normalari amaliyotda kutilgan samarani bermaydigan "o'lik norma"ga aylanib, investitsion jozibadorlikning pasayishiga va kapital oqimining turg'unlashishiga sabab bo'lmoqda.

"Legistik inflyatsiya" fenomeni huquqiy tizimda normativ-huquqiy hujjatlar miqdorining asossiz o'sishi, ularning yuqori dinamikada transformatsiyaga uchrashi hamda buning oqibatida regulyativ mexanizmlarning murakkablashuvi bilan xarakterlanadi. Mashhur huquqshunos H. L. A. Hartning konseptual qarashlariga

ko'ra, "huquqiy tizimning samaradorligi qoidalar barqarorligi va ularning izchil qo'llanilishiga bog'liq"[9].

Ekologik inqiroz zonalarida aholini ijtimoiy muhofaza qilishga oid qonunchilik bazasining retrospektiv tahlili "Orolbo'yi mintaqasida ekologik ofat natijasida jabrlangan fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun normalarining ma'nan eskirganligini ko'rsatmoqda. Xususan, amaldagi preferensiyalar va kompensatsiya mexanizmlari o'tgan asrning 90-yillari boshidagi iqtisodiy konyunkturaga mos ravishda ishlab chiqilgan bo'lib, zamonaviy bozor iqtisodiyoti tamoyillari hamda inflyatsion indikatorlarni o'zida aks ettirmaydi. Mazkur nomuvofiqlik natijasida qonunchilikda belgilangan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash choralari deklarativ va ramziy xarakter kasb etib, aholining real sotsial ehtiyojlarini qondirishda o'zining amaliy funktsionalligini yo'qotgan. Mazkur holat huquqiy davlatchilikning fundamental negizi hisoblangan "ijtimoiy adolat" tamoyilining buzilishiga hamda normativ-huquqiy hujjatning ijtimoiy samaradorlik koeffitsiyenti pasayishiga sabab bo'lmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlarini modernizatsiyalashning kontseptual asoslari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqa huquqiy tizimini isloh qilish davlat boshqaruvini demokratlashtirish va aholi farovonligini ta'minlashning asosiy omilidir. Qonunchilikni yangilash jarayoni shunchaki normativ hujjatlarni ko'paytirish emas, balki ularning sifat jihatidan yaxshilanishi, to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlar ulushining ortishi va huquqiy bo'shliqlarning bartaraf etilishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, Orolbo'yi mintaqasining ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan huquqiy mexanizmlar hududni barqaror rivojlantirishda strategik ahamiyat kasb etadi.

Modernizatsiyalashning kontseptual yo'nalishlari doirasida qonun ijodkorligi jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, huquqiy monitoring tizimini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi ekspertiza institutini mustahkamlash ustuvor vazifalar bo'lib qolmoqda. Mintaqaviy qonunchilikni umumdavlat strategiyalari va xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish nafaqat huquqiy maydonning yaxlitligini ta'minlaydi, balki investitsiya muhitini yaxshilash hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlarini modernizatsiyalash – bu davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligiga asoslangan dinamik jarayondir. Mazkur jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi qonun ustuvorligini ta'minlashga, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirishga va jamiyatda adolat tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi. Kelgusida qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalash ishlarini davom ettirish mintaqaning huquqiy poydevorini yanada mustahkamlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416-b.
2. Organization for Economic Co-operation and Development Regulatory Impact Analysis: Best Practices. – Paris, 2018. – 15 p.
3. Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Советиниң мәжилисери. Стенографиялық есап. XI шақырық, XII сессия, 26-февраль 1994-жыл. Стенографиялық есабат. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996. – 52-б.
4. Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кеңесиниң мәжилисери. Стенографиялық есап. 1995-жыл 10-июнь. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996. – 47-б.
5. Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кеңеси архиви. ф.1, оп.14, д.28. //Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кеңесиниң мәжилисери. Стенографиялық есап. 1995-жыл 29-декабрь. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1996. – 81-б.
6. Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кеңесиниң хабарнамасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2009. №2. – 61-б.
7. Қарақалпақстан Республикасы Жоқарғы Кеңесиниң хабарнамасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2016. №2. – 60-б.
8. Odilqoriyev X. Qonunchilik texnikasi. – Toshkent: Adolat, 2018. – 167-b.
9. H.L.A. Hart. The Concept of Law. – USA: Oxford University Press, 2012.